



«KAMOLOT»
KUTUBXONASI

O'tkir
Hoshimov

NUR BORKI,
SOYA BOR




YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2017

UO'K: 821.512.133-3

KBK: 84(50')7

H – 71

Hoshimov, O'tkir

Nur borki, soya bor: roman, qissa va hikoyalar /O'tkir Hoshimov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 576 b.

ISBN 978-9943-20-236-8

O'zbek adabiyotida faqat shu millatgagina xos bo'lgan fazilat va qadriyatlarni tarannum etuvchi shoir va yozuvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. O'tkir Hoshimov ijodida aynan shu jihatlar ustuvorlik qiladi.

O'zbekona tuyg'u, kechinma, insoniy qadr-qimmat mavzularini o'ziga xos ifodalagan adibning e'tiboringizga havola etilayotgan «Nur borki, soya bor» romani, «Dunyoning ishlari» qissasi hamda turkum hikoyalarida inson ruhiyati butun murakkabligi va serqirraligi bilan tasvirlanadi.

Bu asarlarga hayot va inson haqidagi falsafiy, ibratli fikrlar singdirib yuborilgan, halollik va poklik ulug'langan, «nur» va «soya»lar orasidagi azaliy kurash mavzusi ta'sirli voqealar asosida yoritilgan.

UO'K: 821.512.133-3

KBK: 84(50')7

ISBN 978-9943-20-236-8

© O'tkir Hoshimov, «Nur borki, soya bor». «Yangi asr avlodi», 2017-yil.

1

«Dunyoning ishlari qiziq ekan. Eng oqil mavjudot inson deymiz-u, baʼzan odamning arzimagan narsaga aqli yetmay qoladi. Bir paqirga qimmat, oʻtkinchi ikir-chikirlari uchun jon kuydiradi-yu, eng beba-ho xazinasidan – salomatligidan judo boʻlayotgani-ni oʻylab oʻtirmaydi». Sherzod kasalxonaga tushgan kunidan boshlab uning xayolida bu fikr tez-tez aylanadigan boʻlib qoldi. Hozir ham toʻri boʻshashib, oʻrtasi chuqurcha boʻlib qolgan sim karavotda oʻtirarkan, shu gapni eslab miyigʻida kulib qoʻydi. «Umuman, odamning aqli doim kechikib kiradi, – deb oʻyladi u chuqur xoʻrsinib. – Biz hamma narsaning qadrini yoʻqolganidan keyin bilamiz. Hatto bir-birimizning qadrimizni ham».

U karavotni gʻijirlatib oʻrnidan turdi. Toʻrt qadam yurib, sutrang boʻyoqqa boʻyalgan eshik oldiga bordi. Yana toʻrt qadam yurgan edi, deraza oldiga kelib qoldi. Sherzod yotgan yettinchi palata ikki oʻrinli edi. Eshik bilan deraza oʻrtasi – toʻrt qadam. Ikki tomoni-dagi devor ostiga ikkita karavot, ikkita tumbochka qoʻyilgan. Bu yerda hamma narsa oq: devorlar ham, eshik-derazalar ham, tumbochkalar ham. Faqat deraza tokchasida qachonlardir bemorlar qoʻygan choynaklarning sargʻish izi muhrlanib qolgan.

Sherzod deraza pardasini surib, tashqariga qaradi. Havo bulutli, kasalxona hovlisi boʻm-boʻsh edi. Qor allaqachon erib ketgan, ammo hali bahor kirmagan. Sovuq urib ketmasligi uchun gullarning

ustiga «ko'mma» qilib qo'yilgan sarg'ish qipiq ham yig'ishtirib olinmagan. Gulzorga to'kilgan bultur-gi xazon ilma-teshik bo'lib, och-jigarrang tus olgan. Qish bo'yi qor-u yomg'ir suviga to'yib, qorayib qolgan yer mudroq bir kayfiyatda og'ir-og'ir xo'rsinayotgan-ga o'xshaydi. Faqat hali chopilmagan ariqcha cheti-da unda-bunda ko'rinib qolgan maysa nayzachalari nurli kunlar yaqinligidan darak berib tantana qila-di. Shundoqqina deraza yonida o'sgan bir tup o'rik niholining novdalari shamolda silkinadi, yaqinlashib kelayotgan bahorini go'yo sezib, quvonadi. Sherzod mamnun jilmaydi.

Yo'lak tomondan og'ir-og'ir yo'tal tovushi eshitildi. Yo'lakning qoq o'rtasida, devor tagidagi yig'ma kara-votda ikki bukilib o'tirgan, rangi sarg'ayib ketgan mushtdekkina chol Sherzodning ko'z o'ngiga keldi. Bu bemorni kecha ertalab olib kelishgan, palatalarda joy bo'lmagani uchun vaqtincha o'sha yerga joy qilib berishgandi. Bugun Sherzodning palatasidagi semiz bemorga javob tegdi. Sherzod uning o'rniga o'sha cholni yotqizishsa kerak, deb o'ylagandi. Yo'q, nega-dir uni olib kirishmadi. «Kimga asrashyapti bu joyni, – deb o'yladi Sherzod karavotiga o'tirarkan. – Umu-man, bu palata qandoq qilib menga tegib qoldiykin?»

O'sha kuni kasalxonaga olib kelishganda, Sherzod deyarli behush edi. Tashvish har doim qo'shaloq bo'lib yuradi. O'shanda ham shunaqa bo'ldi: Sherzod ertalab bekatdagi do'kondan adabiy jurnalning yangi sonini sotib oldi. Jurnalni varaqladi-yu, tanqid bo'limida bosilgan maqolaga ko'zi tushdi. Maqolada Sherzodning yangi kitobi rosa do'pposlangan edi. Tanqid kimga yoqadi deysiz? Ammo Sherzod tanqid-dan o'ziga kerakli fikrlarni ajratib olishga o'rganib qolgan, uning samimiy tanqidchi do'stlari ko'p edi. Bu maqolada ham to'g'ri gaplar borligini darrov pay-

qadi. Faqat uning dilini boshqa narsa og'ritdi: maqola qochiriqlar-u kinoyalar bilan to'la edi.

Maqolani Sherzoddan bir yil ilgari universitetni bitirgan, hozir til-adabiyot institutida ishlaydigan fan nomzodi yozgandi. Sherzod qissani chiqarishdan oldin shu tanqidchiga ham o'qitgan, o'shanda u asarni maqtagan edi. Sherzodga shunisi alam qildi. U o'zi ishlaydigan tahririyatga kirib kelganda, ko'ngilsiz fikrlardan boshi shishib ketgandi. Aksiga olib, ishxonada uni yangi dilsiyohlik kutib turgan ekan.

Bir kun ilgari u gazetada navbatchilik qilgan edi. Ikkinchi sahifada xato o'tib ketibdi. Allaqaysi zavod rejasini yuz o'ttiz foiz bajargan ekan. Maqolada «nol» raqami tushib qolibdi, zavod rejani o'n uch foiz bajargan bo'lib chiqibdi.

Tushdan keyin tahririyatning umumiy majlisi bo'ldi. Uni rosa «savalashdi». Ayniqsa, majlis desa o'zini tomdan tashlaydigan muharrir o'rinbosari qattiq urishdi. Sherzod bahona qidirib o'tirmadi. Majlis oxirida unga qattiq hayfsan e'lon qilishdi.

Sherzod majlisdan chiqib, to'ppa-to'g'ri «Toshkent» restoraniga kirdi. U hech qachon yolg'iz o'zi ichmas edi. O'sha kuni ichdi. Avval ikki yuz gramm konyak buyurdi. Keyin yana yuz gramm. Keyin aroq... U ahmoqona ish qilayotganini idrok etar, lekin hadeb aqlli bo'lishdan ko'ra ora-chora ahmoq bo'lish ham yaxshi, degan o'y kallasiga o'rnashib qolgandi o'sha tobda.

U uyiga qandoq qilib kelganini tasavvur qilolmaydi. Faqat Chilonzordagi uyi oldida taksidan tushgani g'ira-shira yodida bor.

Kechasi to'satdan uyg'onib ketdi-yu, yuragi qattiq-qattiq urayotgani, ko'kragi qattiq sanchayotganini, tomog'iga bir narsa tiqilib, bo'g'ilib qolayotgani, sezib, ko'ngliga g'ulg'ula tushdi. Avvallari ham shunaga bo'lib turardi. Ammo hech qachon shu safargidek bo'shshib ketmagan edi. U a'zoyi badanidan muzday

ter chiqib ketayotganini payqadi-yu, chiroqni yoqdi. Yelkasiga paltosini tashlab, qorong'i zinaga chiqdi. Yozuvchilar uyushmasidan unga bir xonali uy berishganiga hali ko'p bo'lmagan, bu yerga Sherzod yaqinda ko'chib kelgan edi. Pastga tushishga madori yetmadi. Qo'shnilarni tanimaydi. U tavakkal qilib, yonbosh tomondagi eshik qo'ng'irog'ini bosdi. Uzoq surishtirishlardan keyin rus kampir eshikni qo'rqa-pisa ochdi. Sherzod ahvolini aytib, «Tez yordam» chaqirishni so'radi. O'z xonasiga qaytib kirdi-yu, emaklagudek borib, divanga yiqildi. Uyga oq xalat kiygan kishilar kirib kelganida ularni g'ira-shira ko'rdi.

Mana, o'shandan buyon to'rt kun o'tdi. Kasalxonaning o'ziga xos qoidalari bor ekan: bu yerga tushganlar bir xil och-havorang bumazi xalat kiyib yuradi. Bir xil ovqatlanadi, bir vaqtda yotib, bir vaqtda turadi. Sherzod birinchi marta shifoxonaga tushgani uchun avvaliga kasalxona qoidalariga ko'nikolmay yurdi-yu, keyin o'rgandi. Hozir u ertalab ko'zini ochishi bilan navbatchi hamshira tumbochka ustiga qo'yib ketgan doriga ko'zi tushadi. Tariqday keladigan folikor degan qizil dorini, menzurkadagi yana allaqanday suyuqlikni ichib oladi. Nonushtadan keyin bemorlar «Manipulyatsionnaya» degan eshik oldiga qator-qator bo'lib kelishadi. Birov yengini shimarib, birov cholvorini tushirib tayyor bo'lib turadi. Qosh-ko'zi popukday, doim kulib turadigan Shoira degan do'ndiqqina juvon bemorlarga ukol qilishga kirishadi. U ninani shunchalik bepisand sanchadiki, o'z ishini shu qadar bemalol qiladiki, har safar Sherzod bir narsani o'ylaydi. «Gastronomdagi sotuvchi qiz kolbasani qandoq ushlasa, Shoira ham bemorning bilagini shundoq tutadi. Zarracha farqi yo'q».

Sherzodlarning palatasiga Doktor opa degan vrach qaraydi. Bemorlar ham, hamshiralar ham – hamma uni shunday ataydi. Hech kim otini aytib chaqir-

maydi. Sochlari duv oqargan, ammo ko‘z qarashlari tiyrak Doktor opa har kuni Sherzoddan qandoq ovqatlangani, qandoq uxlagani-yu hatto nima tush ko‘rganigacha sinchiklab so‘raydi. Sherzod uning tiyrak ko‘zlariga qarab yotadi-yu, ko‘nglida minnatdorchilik tuyg‘usi aralash allanechuk bir iymanish hissi uyg‘onadi. Xuddi restoranga kirib birovning hissobidan ovqatlangan odamdek qarzdor bo‘lib qolayotganga o‘xshayveradi.

Tushlik o‘tib, ikki soatlik majburiy hordiq tamom bo‘lgandan keyin kasalxona gavjum bo‘lib ketadi. Bemorlar og‘izlariga yoqar ovqat olib kelgan kishilar bilan dardlashishga tushadi. Undan keyin kechki ovqat... Sherzod kechki ovqatni eslashi bilan beixtiyor soatiga qaradi. Oltidan sal o‘tibdi. Demak, bir soatcha bor. U qorni ochganidan emas, tartib bilan ovqatlanishi zarurligini doktor qayta-qayta tayinlaganidan shuni o‘yladi.

Yo‘lak tomondan yana o‘sha yo‘tal tovushi keldi. Bu safar chol uzoq to‘xtovsiz yo‘taldi. U og‘ir-og‘ir entikar, nafasi yetmay harsillab qolayotgani aniq eshilib turar edi. Uning sarg‘ayib ketgan yuzi, mushtdekkina gavadasi Sherzodning ko‘z o‘ngida tag‘in jonlandi. «Nimaga joy bo‘sh turib, olib kirishmaydi? – deb o‘yladi u g‘ijinib. – Kimga saqlab turishibdi?»

U kasalxonaga tushgandan buyon o‘tgan mana shu to‘rt kun ichida bir narsani sezdi. Bu yerning tartib-qoidalari hammaga baravar bo‘lsa ham, joy tanlaydigan bemorlar, kasallarning «mavqeyi»ga qarab joy taqsimlaydigan odamlar ham bor ekan. Sherzod yotgan palata ikki kishilik bo‘lgani uchunmi, boshqa xonadagi ba‘zi bemorlar o‘ziga hasad aralash g‘azab bilan qarayotganini Sherzod sezar, sezgan sayin g‘ashi kelardi.

Hozir yo‘lakdagi cholning yo‘talishi uning yonidagi karavot bo‘sh yotganini yana bir bor esiga soldi-yu,

chidab turolmadi. Eshikni siltab ochib, yo'lakka chiqdi. Yo'lak chiroqlari yoqib qo'yilgan, tozalab artilgan linolium pol yaraqlab turardi. Sarpoychan, oyog'iga kalish kiyib olgan chol yig'ma karavotda o'tirgancha silkinib-silkinib yo'talar, zo'riqqanidan ko'zlaridan yosh chiqib, burishiq yuzi ko'karib ketgan edi. Nihoyat, yo'tal to'xtadi. U o'pkasi g'ijillagancha og'zini kappa-kappa ochib nafas ola boshladi. Yig'ma karavot boshiga suyanchiqli stul qo'yilgan, stul ustida jo'mragi uchgan choynak bilan stakan turardi. Chol o'tirgan joyida egilib, titroq qo'llari bilan stakanga choy quydi. Entikib-entikib icha boshladi.

Sherzod keskin burildi-da, yo'lak boshiga – «bo'lim mudiri» deb yozib qo'yilgan eshik oldiga bordi. Bemorlar bu eshikdan ichkari kirishga jur'at etolmas, hatto vrachlar ham bo'lim mudirining xonasiga o'ylashib kirishlarini Sherzod bilar, u mudirning o'zini uch-to'rt marta ko'rgan, ammo otini bilmas edi. Bir zum ikkilanib turdi-da, shaxt bilan eshikni ochdi. U, mudir allaqachon ketib qolgan bo'lsa kerak, deb o'ylagan edi. Yo'q, ketmagan ekan. Bo'lim mudiri ustiga oq g'ilof qoplangan divan suyanchig'iga suyangancha boshini orqaga tashlab o'tirar, shuning uchunmi, ingichka bo'yni uzun ko'rinardi. U qo'llarini yoniga tashlab olgan, xalatining yelkalari osilib yotar, yupqa gardishli ko'zoynagi yaltirab turardi.

Sherzod ostonada to'xtab qoldi. Mudir boshini bu-rib shu tomonga qaradi.

– Nima gap?

– Yettinchi palatada bitta joy bo'shadi, – dedi Sherzod sovuqqonlik bilan. Mudir yuzini o'girdi. Loqayd bosh silkiib qo'ydi.

– Xabarim bor.

– Yo'lakdagi chol ikki kundan buyon joy kutib yotibdi.

Mudir yana Sherzod tomonga boshini burdi. Ko'zoynak ustidan unga sinchiklab qaradi. Ammo tag'in o'sha loqayd ohangda gapirdi.

– Xabarim bor.

Bu gapdan Sherzod: «Yo'lingdan qolma» degan ma'noni uqdi.

– Endi nima bo'ladi? – deb so'radi qovog'ini solib.

– Endimi? – bo'lim mudiri uzun oyoqlarini yig'ishtirib shoshilmay o'rnidan turdi. – Yarim soatdan keyin kechki ovqat bo'ladi. Ovqatlanib bo'lgandan keyin yotib dam olasiz. U ko'zoynak orqasidan Sherzodga boshdan-oyoq razm solib chiqdi-da, negadir jilmaydi. – Kelishdikmi?

Bu gap ohangida kinoya ham, shifokorning bema'riga muruvvati ham bor edi.

Sherzod bir zum esankirab qoldi.

– Men bilolmay qoldim, – dedi ovozi titrab. – Palatada bo'sh joy tursa-yu, kasal yo'lakda yotsa?

Bo'lim mudiri miyig'ida kulib qo'ydi.

– Xotirjam bo'ling, joy bo'sh qolmaydi, – u sekin-sekin yurib yaqin keldi-da, ko'zoynagi ortidan Sherzodga qattiq tikildi, – yo o'zingizning joyingizni bo'shatib berasizmi?

Sherzod bu odam yarim hazil-yarim ermak ohangida gapirayotganini tushundi-yu, bolaligidan qoniga singib ketgan qaysarlik lop etib yuziga tepdi.

– Bo'пти, bo'shatib beraman! – U mudirning ko'ziga tik qarab chertib-chertib gapirdi. – Lekin men yo'lakda yotmayman. Manavi divanga chiqib yotaman.

Bo'lim mudiri ingichka yelkalarini silkitib to'satdan qah-qah urib kulib yubordi. Shunday kuldiki, yupqa gardishli ko'zoynagi siljib ketdi. Ko'zoynagini qo'lga olib, xalatining ko'krak cho'ntagiga solib qo'ydi. Sherzodning yelkasiga qoqdi.

– Qiziq odam ekansiz! – dedi hamon kulib. Ammo endi bu gapni kinoya ohangida emas, samimiy aytdi.

– Bu bizning ishimiz, birodar. Kasalni biz davolaymiz, siz emas!

– Bilaman, – dedi Sherzod bo'g'iq ovozda, – tanasini davolaysiz, ruhini o'ldirasiz.

Mudir birdan jiddiy tortdi.

– Tushunmadim, – dedi qoshini chimirib.

– Nimasini tushunmaysiz?! – Sherzod keskin qo'l siltadi. – Ikki kundun buyon yo'lakda yotgan odam, nega meni tayyor joyga olishmadi, deb o'ylamaydimi? Men o'sha zormanda joyga loyiq emas ekanman-da, deb ko'ngli cho'kmaydimi?!

Mudir bir muddat xijolat chekkandek ko'zlarini olib qochdi. Ammo zum o'tmay yuzida yana o'sha tabassum paydo bo'ldi.

– Ko'p kuyunchak bo'lavermang, – dedi yupatuvchan ohangda. – Siz bu yerga davolanish uchun kelgansiz. Masala talashish uchun emas. Avval o'zingizning sog'lig'ingizni o'ylang. Boshqasini biz hal qilamiz.

Sherzod indamay nari ketdi. Palatasiga yurarkan, chol tomonga yana bir bor qarab qo'ydi. Chol endi yo'talmas, g'ujanak bo'lib devorga o'girilib yotib olgan edi. Chetdan qaragan odamga u uxlab qolganga o'xshardi. Ammo Sherzod uning uyg'oq ekanini ichki bir tuyg'u bilan his qildi. Shu tobda bu odamga hech qanday yordam berish qo'lidan kelmasligini o'yladi-yu, ko'ngli bo'm-bo'sh bo'lib, palataga kirdi. Jahl bilan karavotga o'zini tashladi. Karavot simlari asabiy g'ijirlab ketdi. Shunda to'satdan yuragi tez-tez gursillab ura boshladi. «Taxikardiya degani shu bo'lsa kerak-da, – deb o'yladi doktordan eshitgan gapini eslab. Bir lahzada madori qurib, peshonasidan sovuq ter chiqdi-yu, o'rniga cho'zildi. – Nimaga yana shunaqa bo'lyapti?» U deraza tomonga tikilib, yuragining gurs-gurs urishiga quloq solib uzoq yotdi. Deraza ortida oqshom tashvishi bilan jonsarak bo'lib qolgan chumchuqlar tinimsiz chirqillar, yosh o'rikning qizg'ish novdalari hamon qattiq-qattiq silkinar edi.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/uz/asar/4125> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/4125> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/4125>